

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINING QONUNY ASOSLARI

Akramova Sabrina¹

Toshkent davlat yuridik universiteti

KEYWORDS

ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy
ma'lumotlar himoyasi.
Kiberxavfsizlik, huquqiy
kafolatlar, axborot himoyasi,
raqamli huquq,
axborotlashtirish, qonunchilik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Ilmiy izlanish davomida O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi va normativ – huquqiy hujjatlar, ularning mohiyati va amaliy tatbiq etilishi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy asoslardan boshlab maxsus qonunlar bilan tuzilgan huquqiy bazaning tuzilishi, davlat organlari vakolatlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari ham o'rganilib chiqiladi. Maqolada kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasidagi qonunchiliklar ham o'rganiladi va muammolar tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15620114](https://doi.org/10.5281/zenodo.15620114)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lib, ma'lumotlar xavfsizligi milliy xavfsizlikning muhim bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik tizimiga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda va tizim zamonaviy standartlar asosida takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya tufayli ma'lumotlar xavfsizligi puxta huquqiy baza yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 19 -dekabr 2018 yildagi 2246-III-son "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi QL-449-sonli O'zbekiston Respublikasi qonun loyihasi² ishlab chiqildi. Bu qonun loyihasi bir qancha axborot xavfsizligi to'g'risida qonunchiliklarning qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Ommaviy axborot vositalari yo'nalishi talabasi

² 2246-III-son 19.12.2018. "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi QL-449-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

Har kim o'z shaxsiy ma'lumotlariga egalik qilish huquqiga ega va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Bosh qomusimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning VII bob 27-moddasi fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini kafolatlaydi.³ Bunga qo'shimcha tarzda 31-moddasida⁴ esa har bir fuqaro shaxsiy hayotining daxlsizligi va o'z sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish va o'z shaxsiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni himoya qilish huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq yoki sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan barcha ma'lumotlar fuqarolar himoyasining konstitutsiyaviy negizini tashkil etadi.

Asosiy qonunchilik hujjatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak bulardan birinchisi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligining 560-II-sonli **"Axborotlashtirish to'g'risidagi"**⁵ qonundir. Ushbu qonunning asosiy maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonunchilikning 3-moddasida axborotlashtirish, axborot resurslari va ushbu tizimning mulkdori, egasi haqida batafsil ma'lumot berib o'tilgan. Qonunchilikka asosan axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari hisoblanadi. Qonunchilikning 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati keltirib o'tilgan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati — bu zamonaviy dunyodagi ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini rivojlantirish orqali samarali va milliy axborot tizimini barpo etishga qaratilgan harakatdir. Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshiradi.⁶ Bundan tashqari, 13-14-moddalarga asosan jismoniy shaxslar o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot resurslaridan erkin foydalangan holda olishlari yoki shakllantirishlari mumkin.

Ikkinchi eng muhim hujjatlardan biri sifatida 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan 547-sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" qonunni keltirish mumkin. Bugungi davrda shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi xolis voqelikka aylanib bormoqda. Shu'ni ta'kidlab o'tish joizki, inson haqidagi ma'lumotlar juda muhim bo'lgan va u hozirgi paytda noyob tovar sifatida qaralmoqda. Rasul Kusherbayevning ta'kidlashicha insonning shaxsiga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish, undan turli hil g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalasi har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyatga ega. Uning

³ [30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](#)

⁴ [30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](#)

⁵ [560-II-сон 11.12.2003. Axborotlashtirish to'g'risida](#)

⁶ [560-II-сон 11.12.2003. Axborotlashtirish to'g'risida](#) qonun 5-modda Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish

aytishicha, bu borada qabul qilingan “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonun milliy qonunchilikda raqamli texnologiyalar davrida fuqarolarga o'z shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorat qilish, ulardan foydalanish imkoniyatini soddalashtirish hamda qayerda ishlov berilishidan qat'iy nazar bildirilgan maqsad uchungina foydalanishini ta'minlash imkoniyatini beradi.⁷

Shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'oz va boshqa moddiy jismda qabul qilingan axborotdir. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi” qonunchilikda shaxsga doir ma'lumotlar subyekti, bazasi, bazaning operatori va mulkdori, uchinchi shaxslar haqida ma'lumot berilgan va qonunchilikning 5-moddasiga asosan quyidagi prinsiplarni o'z ichiga oladi⁸: fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya qilish, ma'lumotlarga ishlov berishning maqsadi va usullarining qonuniyligini ta'minlash, shaxsga doir ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi, maxfiyligi va himoya qilinganligi, shaxs, davlat va jamiyatning xavfsizligini ta'minlashdir. Fuqaroning shaxsiy ma'lumotlarni uzatishda yoki ularga ishlov berishda operator yoki mulkdor subyektning yozma shakldagi yokida elektron hujjat tarzidagi roziligini olgan holda amalga oshirishi mumkin, bu qonunchilikning 31-moddasida mulkdorning va operatorning huquq va majburiyatlarida belgilab qo'yilgan.⁹

Keyingi qonunchilik O'zbekiston Respublikasining 764-sonli “Kiberxavfsizlik to'g'risidagi” qonunchilik bo'lib davlat organlari va tashkilotlarining kiberxavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquq va majburiyatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunchilikda kiberjinoyatchilik, kibermakon, kibertahdid, kiberxavfsizlik hodisasi, obykti, subyekti, kiberhimoya singari tushunchalarga 3-moddada¹⁰ batafsil ma'lumot berilgan. Kiberxavfsizlik tushunchasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdir. Kiberxavfsizlik sohasini yana takomillashtirish uchun yetarlicha malakali bo'lgan kadrlarni tayyorlash va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza o'tqazish mexanizmlarini belgilash lozim¹¹. Kiberxavfsizlikni baholash usullarini ham ishlab chiqish eng asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, qonunchilikka asosan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy yondashuvlarni O'zbekistonga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu sohani samarali huquqiy tartibga solinishini ta'minlash uchun maxsus vakolatli organlar faoliyat yuritadi. Mazkur funksiyalar quyidagi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi:

Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) – mamlakat kiberxavfsizligi bo'yicha bosh vakolatli organ

⁷ Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi nima uchun kerak? www.kun.uz

⁸ O'RQ-547-son 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida 5-modda

⁹ O'RQ-547-son 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida 31-modda

¹⁰ O'RQ-764-son 15.04.2022. Kiberxavfsizlik to'g'risida 3-modda

¹¹ DXX raisining "Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash haqidagi 3573-son buyrug'i, 2024.

hisoblanadi. U muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida axborot xavfsizligi holatini muntazam monitoring qilib boradi va potensial tahdidlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi – axborotlashtirish siyosatini amalga oshiruvchi asosiy davlat organi sifatida axborot texnologiyalari, davlat elektron xizmatlari va IT infratuzilmaning barqaror rivojlanishiga mas'ul.

Adliya vazirligi – shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasida nazoratni amalga oshiradi, qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda fuqarolarning axborotga oid huquqlarini himoya qiladi.

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi – axborot tizimlarining texnik muvofiqligi, xavfsizlik choralarining mavjudligi va amaliyotga tatbiq qilinishini tekshiradi.

Shaxsiy ma'lumotlar bazasiga egalik qiluvchi tashkilotlar yoki ularning operatorlari ma'lumotlarni himoyalash uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'rish shart. Bu ishlar maxsus tuzilmaviy bo'linmalar yoki mas'ul vakillar orqali amalga oshiriladi va ularning faoliyati tegishli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

“Axborotlashtirish” va “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” qonunda fuqarolar quyidagi huquqlarga ega: axborot olish, tuzatish, o'chirish, e'tiroz bildirish, kompensatsiya olish singari.

Ma'lumotlarni qonuniy asoslarsiz yig'ish, noto'g'ri ishlatish yoki himoyasiz qoldirish holatlari uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning¹² 46¹-moddasiga ko'ra shaxsning shaxsiy yoki shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarning uning roziligiz tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarimaga solinishi qonun bilan belgilangan.

46²-moddaga asosan shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish, saqlash, o'zgartirish, foydalanish yoki tarqatish, shuningdek, internet orqali O'zbekiston hududida joylashgan texnik vositalarda va davlat ro'yxatidan o'tmagan ma'lumotlar bazalarida ishlov berish tartibiga rioya qilmaslik fuqarolarga 7 baravar, mansabdor shaxslarga esa 50 baravar bazaviy hisoblash miqdorida jarima qo'yilishiga sabab bo'ladi.

Jinoiy kodeksning¹³ 141¹- modda Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish va 141²-modda shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni qonunga xilof buzgani uchun qonunchilik doirasida jazolanadi.

“Axborotlashtirish to'g'risidagi” qonunchilik 17-moddasiga asosan axborot tizimlarini tashkil qiluvchi texnik vositalar qonunchilikda belgilangan tartibda sertifikatlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun mustahkam va doimiy takomillashib borayotgan qonuniy baza mavjud. Kelajakda ma'lumotlar xavfsizligi tizimini yanada mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yangi texnologik yechimlarni joriy etish orqali O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va jamiyatni barpo qilish mumkin.

¹² 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi

¹³ 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'y`xati:

1. 2246-III-сон 19.12.2018. "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi QL-449-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. 560-II- sonli "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonun 560-II-сон 11.12.2003. Axborotlashtirish to'g'risida
4. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. ORQ-547, 2019.
5. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. ORQ-764, 2022.
6. DXX raisining "Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash haqidagi 3573-son buyrug'i, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat to'g'risidagi kodeks
9. Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi nima uchun kerak? www.kun.uz Rasul Kuserbayev.